



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DAVLAT TA’LIM STANDARTI TALABLARI ASOSIDA ONA TILI O‘QITISHNI IJODIY TASHKIL ETISHDA INNOVATSION USULLAR

Xoliqova Matluba Mardon qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistenti

Telefon raqam:+99899773-36-01

xoliqovamatluba5@gmail.com

Hayitova Muhabbat Shukrullayevna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistenti

Telefon raqam:+99899027-73-77

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda davlat ta’lim standarti talablari asosida ona tili o‘qitishni ijodiy tashkil etish bugungi ta’lim jarayonida dolzarb masalalardan biri ekanligi hamda ona tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishdan iborat ekanligi haqidagi fikrlar to‘g‘risida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, davlat ta’lim standarti, ona tili o‘qitish, ta’lim, ijodiy qobiliyat, o‘quv jarayoni, innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Аннотация

В данной статье творческая организация обучения родному языку на основе требований государственного образовательного стандарта в начальных классах является одним из наиболее актуальных вопросов современного образовательного процесса, а развитие творческих способностей учащихся



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

путем использования инновационных педагогических технологий на родном языке. Занятия языком Есть мнения, что они заключаются в формировании.

Ключевые слова: начальный класс, государственный образовательный стандарт, обучение родному языку, образование, творческие способности, учебный процесс, инновационные педагогические технологии.

Annotation

This article discusses the ideas that the creative organization of teaching the native language in primary grades based on the requirements of the state educational standard is one of the current issues in today's educational process, and that the development of students' creative abilities through the use of innovative pedagogical technologies in native language lessons is aimed at forming independent thinking skills and increasing the effectiveness of the educational process.

Keywords: primary school, state educational standard, native language teaching, education, creative abilities, educational process, innovative pedagogical technologies.

KIRISH

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang‘ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo’llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab o‘quv dargohi. Boshlang‘ich sinflar esa uning asosi. Asosiy, tirkak bilimlar aynan shu boshlang‘ich sinflik davrida olinadi. Shuni chuqur anglagan holda bugungi kunda boshlang‘ich sinf ta’limiga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan: “O‘zbekiston Respublikasining umumta’lim maktabi to‘g‘risida”gi Nizomining 2-bobi “Ta’lim-tarbiya jarayonining tuzilishi va uni tashkil qilish” bobida



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

keltirilganidek, “Boshlang‘ich ta’lim (I bosqich) o‘qish, yozish, hisoblash, o‘quv faoliyatining asosiy bilim va ko‘nikmalari, nazariy fikrlash elementlari, nutq va xulq madaniyati asoslarini egallashni hamda shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzini ta’minlashga da’vat e’tilgan. Boshlang‘ich ta’lim tayanch ta’lim olish uchun asos hisoblanadi [1].

Hayotimizda ro‘y bergen, berayotgan va kelajakda ro‘y beradigan jamiki narsalarni mavzular kesimida hayotdan olib, hayotga bog‘lab amaliy isbotlab, amaliy ko‘rsatib tasavvur uyg‘otsak, yoshlar nafaqat ona tili fanlarida, balki boshqa fanlardan ham mantiqqa tayanib tasavvur hosil qiladilar. Keyingi paytlarda bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan ta’lim sohasida aynan ona tili fanining oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad o‘quvchi nutqini o‘sirishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’lim uzlusiz ta’lim tizimining mustaqil, shu bilan birga, o‘ta murakkab tarkibiy qismidir. Avvalo, boshlang‘ich ta’lim uzlusiz ta’limning dastlabki bo‘g‘inidir. U o‘ziga yarasha dastur, darslik, o‘quv qo‘llanmalariga ega. Boshlang‘ich sinflarda alohida tayyorgarlikdan o‘tgan o‘qituvchilar ishlaydi. Boshlang‘ich ta’lim muammolarini tahlil va tadqiq ishlari bilan mutaxassis olimlar shug‘ullanadi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim ma’lum o‘quv yillaridan tashkil topadi. Bular boshlang‘ich ta’limning mustaqil bo‘g‘in ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, boshlang‘ich ta’lim uzlusiz ta’lim tizimining murakkab bo‘g‘ini hisoblanadi. Bola o‘qish, yozish, hisoblash texnikasini ilk bor boshlang‘ich sinfda egallaydi. U to‘rt o‘quv yili mobaynida hozirgi zamon fani, ishlab chiqarish texnologiyasining umumiyligi asoslarini o‘zlashtiradi va fikrlashni o‘rganadi. Bolalar boshlang‘ich sinflarda o‘qitilish orqali ta’lim jarayonida faol ishtiroy etish yo‘llari, vositalarini egallaydi. Ular mustaqil fikrlash, hayotda o‘z o‘rnini egallash sirlaridan voqif bo‘ladi [2].

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda maktablarda ona tili fanining chuqurlashtirib o‘tilishini, sifatlari dars mashg‘ulotlari olib borilishini, fanlararo bog‘lanishlarni kengroq ta’minlashga alohida ahamiyat berilishini talab etmoqda. Shunday ekan, maktablarda o‘quvchi-yoshlar qiziqishi, fanga moyilliги asosiy masaladir.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

ASOSIY QISM. Ta’lim tizimida ona tili darslarining o‘rnini beqiyosdir. Chunki bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, fikrlash qobiliyatining moddiy ifodasi til orqali ro‘yobga chiqadi. Fikrning voqe bo‘lishi insonning idrok qilishi bilan bog‘liq ekan, bola ona tilini bilmasdan fikrini ifodalay olmaydi, o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Boshqa fanlar bo‘yicha bolada bilim, malaka, ko‘nikmalarning zohir bo‘lishi ona tilini bilish orqali yuzaga chiqadi. Ona tili ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5-9 sinflarda ona tili o‘quv predmetining to‘liq kursini o‘zlashtirishga tayyorgarlik ko‘rishadi. Bular boshlang‘ich ta’limning o‘ta murakkab ekanligi bilan izohlanadi.

Boshlang‘ich ta’lim (BT) umumiyo‘rtta ta’limning dastlabki bosqichi. O‘zbekiston Respublikasida boshlang‘ich ta’lim 1-4 sinflarda ilk ta’lim berish, ularni ma’naviy kamol toptirishning boshlang‘ich davri hisoblanadi. U 1-4 sinflarni o‘z ichiga oladi va bunda o‘qish 6-7 yoshdan boshlanadi. Boshlang‘ich ta’lim umumiyo‘rtta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan boshlang‘ich ta’lim sinflari o‘quv rejasi va dasturlari mavjud [3].

O‘quvchi yangilikka intiluvchan bo‘ladi. Har qanday fanni fanlararo bog‘lab o‘rgatish maqsadga muvofiq. O‘quvchini fanga qiziqtirish, avvalo, o‘qituvchining bilimi, malakasi bo‘lsa, undan keyin dars jarayonida qo‘llay oladigan zamonaviy metod va innovatsion texnologiyalardir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etish bilan birga ularning nutq boyligini ta’minlashda ham muhim o‘rin egallaydi.

Umumiyo‘rtta ta’lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va kreativ fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’limni mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsniga tarbiyalash borasida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2021-2022 o‘quv yili uchun respublikaning barcha umumiyligi o‘rtacha ta’lim maktablari 1-2-sinflarida Milliy o‘quv dasturining amaliyotga joriy etilishidir. Ushbu dastur orqali ta’lim va tarbiyaning shu bosqichidan boshlab o‘quvchilar mustaqil, erkin fikrlashga o‘rgatiladi [4].

Yuqoridagilardan ayon bo‘ladiki, umuman, maktablarni, bizning sharoitda boshlang‘ich sinflarni isloh qilishning ikkinchi sifat bosqichida boshlang‘ich ta’lim mohiyatini o‘rganishni davom ettirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining real o‘quv imkoniyatlarini pedagogik hamda metodik jihatdan atroflicha o‘rganish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, bolalarda mustaqil fikrlash layoqatlarini tarbiyalash, bolaga o‘z fikrlarini ona tilida ravon va tushunarli bayon qilish vositalari, usullarini tadqiq qilish kabilalar ona tili metodikasi sohasida ham eng zaruriy va dolzarb masalalar sanaladi.

Ona tili boshlang‘ich sinflarda asosiy o‘rinni egallar ekan, har bir o‘quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili mashg‘ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘qish, yozuv, grammatik materialni o‘rganish, kuzatishlar hamda o‘quvchilarining ijtimoiy faoliyatları bilan bog‘liq holda ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish.
2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o‘rgatish, ya’ni ularni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish, bu ko‘nikmalarni malakaga aylantirish.
3. Adabiy til me’yorlarini, ya’ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to‘g‘ri talaffuzni o‘rganish, nutq va uslubiy elemetlarni egallah.
4. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o‘rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

O‘quvchilarini o‘qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bialn tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko‘nikmasini hosil qilish [5].

Maktablarda ona tili o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan vazifasiga moslangan. Bu



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish o‘quvchilar ongini o‘stirishga, ularga g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo‘naltirilgan. Ona tilini o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o‘quv predmeti sifatida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, o‘quvchini shax sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan umumta’lim vazifalari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili ta’limining bosh vazifasi turli usulda va mazmunda tashkil etiladigan mashqlar yordamida o‘quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlanterishga qaratiladi.

Ta’lim jarayonida nutq o‘stirish o‘qituvchi va o‘quvchining nutqiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va o‘stirishga qaratilgan hamkorlikdagi amaliy faoliyatdir. O‘quvchilar nutqini o‘stirish hamisha pedagogik rahbarlikni talab etadi [6].

Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi.

Ona tili o‘qitishning maqsad va vazifalari, avvalo, til ta’limiga qo‘yilgan Davlat ta’limi standarti talablaridan kelib chiqadi. Ana shunday muhim talablarning bir ko‘rinishi mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati, og‘zaki va yozma nutqi rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirishdir [7].

Maktablarda ona tili darslarining samaradorligini oshirish borasida “O‘zbek maktablarida ona tili ta’limi konsepsiysi”da ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riq va yo‘nalishlar ahamiyatlidir. Unda “Ona tili ta’limini takomillashtirish maqsadida metodik tavsiyalar, qo‘llanma va minumlar tuzish davr talabi” ekani alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ta’limning yangi shakllarini qo‘llash, uni amaliyotda sinab ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslari ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning asosiy vositasidir. O‘quvchi ona tili darslari orqali



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

mustaqil ishslash ko‘nikmalarini egallaydi va rivojlanadi. Ona tili darslarida rivojlanish, avvalo, o‘qitishning dogmatik metodlaridan voz kechish, ko‘proq o‘quvchini o‘ylash, fikrlash, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga undaydigan metodlarni qo‘llash ona tili darslarining tarbiyalovch va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini butun choralar bilan ishga solish orqali amalga oshiradi. Buning uchun avvalo, ona tili o‘qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni tanlash mahoratiga ega bo‘lishi va har bir metodni amalga oshirishning shart-sharoitlaridan xabardor bo‘lishi lozim [8]. Ta’limning samaradorligi ma’lumot mazmuniga didaktik ishlov berish, ta’lim prinsplariga rioya qilishga bog‘liq bo‘lganidek, ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlashga ham daxldordir.

Ona tili darslarining samaradorligi o‘qituvchining o‘qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni to‘g‘ri tanlay olishi va ularning har birini o‘z o‘rnida qo‘llay olishiga bog‘liq. “Ona tili” fanini o‘qitishning samaradorligi juda ko‘p omillar bilan chambarchas bog‘langan. Shubhasiz, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta’limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to‘g‘ri belgilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida pedagogik hamkorlikning o‘rnatalishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarining barchasi samaradorlikni ta’minalash bilan aloqadordir [9].

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini tashkil qilishda juda ko‘p qiziqarli metodlar mavjud. Bularidan mohirona foydalanish esa o‘qituvchiga bog‘liq. Ona tili darslarini o‘qitishda asosiy e’tibor og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga qaratiladi. Shu bois ko‘proq mutolaa qilish, matn ustida ishslash, gap tuzish, diktant, og‘zaki suhbat mashg‘ulotlari yaxshi samara beradi. [10].

Ona tili ta’limining samaradorligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlashdir. Ona tili darslarida o‘qituvchi ko‘proq o‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o‘quv materialini tushuntirib berish yoki o‘quvchi duch keladigan tushuncha, ta’rif va qoidalar atrofida suhbat o‘tkazish bilan o‘rgatib bo‘lmaydi.

XULOSA. Ta’lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo‘lga qo‘yish masalasi, eng avvalo, ona tili ta’limiga taalluqlidir. Chunki har qanday fanning mohiyati ona tili orqali ifoda qilinadi va ona tili orqali idrok qilinadi. Maktabda ona tili



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd February, 2025

o‘qitishning asosiy maqsadi “O‘zbek maktablarida ona tili o‘qitish konsepsiysi”da ta’kidlanganiday, o‘quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini turlicha yo‘sin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasining umumta’lim maktabi to‘g‘risida”gi Nizom II.Bob. “Ta’lim-tarbiya jarayonining tuzilishi va uni tashkil qilish”.
2. Boshlang‘ich ta’lim Konsepsiysi// Boshlang‘ich ta’lim. 1998.6-son.
3. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. “Pedagogika fanidan izohli lug‘at”, Toshkent – 2008. B. 60-61.
4. Malikova N.B. “Ta’limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2022- yil 7-may. B. 407.
5. Qosimova K., Matchanov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. “Ona tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent, “Nosir” nashriyoti. 2009. B. 17.
6. Xolboyeva G. A. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Qarshi “Intellekt” nashriyoti. 2022. B. 492
7. Bazarboyeva N. “Boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Jizzax 2020. B. 332.
8. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsplari va metodlari. Toshkent, 1992. B. 43.
9. G‘ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2012. B. 69.
10. Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2021-yil iyun. 6-son.